BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA LEKSIK KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING METODIK IMKONIYATLARI

МЕТОДИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ЛЕКСИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

METHODOLOGICAL POSSIBILITIES OF DEVELOPING LEXICAL COMPETENCE IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna
Farg'ona davlat universiteti filologiya fanlari doktori (DSc professor)
+998901625571
E-mail : szokirova1987@gmail.com
ORCID: 0000-0002-4026-8509
Yuldasheva Manzuma Odiljon qizi
Farg'ona davlat universiteti
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi 2-kurs magistranti
Tel: +998(91)120-16-96
E-mail:umaraliyevamanzuma@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0000-6492-9052

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida leksik kompetentlikni shakllantirishning nazariy va metodik asoslari yoritilgan. Leksik kompetentlikning mazmuni, uning o'quvchi nutqiy faoliyatidagi o'rni hamda boshlang'ich ta'lim jarayonida rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish, pedagogik kuzatish va metodik topshiriqlarni loyihalashtirish usullaridan foydalanildi. So'z ma'nosini

anglash, leksik birliklarni ma'no jihatdan farqlash, so'zni kontekstga mos qo'llash, sinonim va antonimlardan foydalanish hamda lug'at bilan ishlashning leksik kompetentlikni shakllantirishdagi imkoniyatlari ochib berildi. Shuningdek, kontekstual, kommunikativ, interfaol, o'yinli va vizual metodlardan foydalanishning metodik jihatlari yoritildi. Tahlil asosida leksik kompetentlikni shakllantirishda "anglash - farqlash - qo'llash - nutqda faollashtirish" ketma-ketligiga asoslangan metodik yondashuv taklif etildi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, leksik kompetentlik, lug'at boyligi, leksik birlik, so'z ma'nosi, nutqiy faoliyat, kontekst, lug'at bilan ishlash, interfaol metod, leksik mashq.

Аннотация

В статье рассматриваются теоретические и методические основы формирования лексической компетентности у учащихся начальных классов. Проанализированы содержание лексической компетентности, её роль в речевой деятельности учащихся и возможности её развития в процессе начального образования. В исследовании использованы методы анализа научно-методической литературы, сравнения, обобщения, педагогического наблюдения и проектирования методических заданий. Раскрыты возможности понимания значения слова, дифференциации лексических единиц, употребления слов в соответствии с контекстом, использования синонимов и антонимов, а также работы со словарём в формировании лексической компетентности. Рассмотрены методические аспекты использования контекстного, коммуникативного, интерактивного, игрового и визуального методов. На основе проведённого анализа предложен методический подход, основанный на последовательности «понимание – различение – употребление – активизация в речи».

Ключевые слова: начальное образование, лексическая компетентность, словарный запас, лексическая единица, значение слова, речевая деятельность, контекст, работа со словарём, интерактивный метод, лексическое упражнение.

ABSTRACT

This article examines the theoretical and methodological foundations of developing lexical competence among primary school pupils. The content of lexical competence, its role in pupils' speech activity, and the possibilities of its development in primary education are analyzed. The study employs the methods of scientific and methodological literature analysis, comparison, generalization, pedagogical observation, and methodological task design. Particular attention is given to understanding word meanings, differentiating lexical units, using words appropriately according to context, working with synonyms and antonyms, and using dictionaries. The methodological potential of contextual, communicative, interactive, game-based, and visual methods is also discussed. Based on the analysis, a methodological approach following the sequence "understanding – differentiation – use – activation in speech" is proposed.

Keywords: primary education, lexical competence, vocabulary, lexical unit, word meaning, speech activity, context, dictionary work, interactive method, lexical exercise.

KIRISH

Bugungi boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchining faqat nazariy bilimlarni egallashi emas, balki o‘z fikrini aniq, ravon va mazmunli ifodalay olishi muhim ta’limiy natijalardan biri sifatida qaralmoqda. Bunday natijaga erishishda o‘quvchining lug‘at boyligi, so‘z ma’nolarini anglash darajasi va mavjud leksik birliklardan nutqiy vaziyatga mos ravishda foydalana olish qobiliyati muhim ahamiyatga ega. Leksik kompetentlikni faqat ma’lum miqdordagi so‘zlarni bilish bilan chegaralab bo‘lmaydi. U so‘z ma’nosini anglash, so‘zlar o‘rtasidagi ma’no munosabatlarini tushunish, muayyan vaziyat uchun mos leksik birlikni tanlash hamda undan og‘zaki va yozma nutqda to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalarini ham qamrab oladi. N. Mahmudovning til va nutq masalalariga oid qarashlari ham til birliklarining mazmuni va ularning nutqdagi qo‘llanishini anglash zarurligini ko‘rsatadi[1]. Boshlang‘ich ta’lim bosqichida leksik kompetentlikni

shakllantirishning o‘ziga xos jihati shundaki, bu jarayon o‘quvchining yosh xususiyatlari, mavjud lug‘at boyligi va nutqiy tajribasi bilan bevosita bog‘liq. Shu sababli yangi so‘zlarni shunchaki yod oldirishdan ko‘ra, ularning ma’nosini kontekst orqali anglatish, turli leksik birliklar bilan qiyoslash va nutqiy vaziyatlarda qo‘llashga yo‘naltirilgan topshiriqlardan foydalanish muhimdir. J.Tuzikenovaning leksik kompetensiyani shakllantirishga bag‘ishlangan tadqiqotida so‘zning ma’no ko‘lami, faol va passiv lug‘at, yangi so‘zlarni o‘zlashtirish hamda ularni nutqda faollashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan[4]. Mazkur qarashlar leksik kompetentlikni shakllantirishda so‘zning ma’nosini bilish bilan bir qatorda uni faol nutqqa olib kirish zarurligini ko‘rsatadi. G‘.G‘.Mo‘minovaning boshlang‘ich sinf ona tili darslarida lingvistik kompetentlikni shakllantirishga bag‘ishlangan tadqiqotida esa leksik, integrativ, interaktiv, o‘yinli va kontekstli yondashuvlarning metodik imkoniyatlari asoslangan[5]. Bu fikrlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining leksik kompetentligini shakllantirishni alohida mashq bilan emas, balki dars jarayonining turli bosqichlari bilan uzviy bog‘lash zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning maqsadi- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida leksik kompetentlikni shakllantirishning samarali metodik imkoniyatlarini aniqlash hamda ularni ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida qo‘llashga doir metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Leksik kompetentlik masalasi tilshunoslik, lingvodidaktika va boshlang‘ich ta’lim metodikasida lug‘at boyligini rivojlantirish, so‘z ma’nosini anglash va nutqiy faoliyatni takomillashtirish bilan bog‘liq holda o‘rganiladi.N. Mahmudov til va nutq hodisalarini o‘rganishda til birliklarining mazmuni va qo‘llanish xususiyatlarini hisobga olish muhimligini ta’kidlaydi[1]. H.Jamolxonovning o‘zbek adabiy tiliga oid tadqiqotlarida ham leksik birliklarning ma’no va qo‘llanish xususiyatlarini o‘rganish til ta’limining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi[2]. Sh. Rahmatullayevning izohli lug‘atga oid ishlari esa so‘z ma’nosini aniqlash va lug‘aviy birliklarning izohini tushunishda lug‘at manbalaridan foydalanish

imkoniyatini ko‘rsatadi[3]. Boshlang‘ich ta’lim metodikasida leksik kompetentlikni shakllantirishga bevosita bag‘ishlangan tadqiqotlardan biri J.Tuzikenovaning ishidir. Muallif leksik kompetensiyani shakllantirish jarayonida yangi so‘zlarni o‘zlashtirish, ularning ma’nosini anglash, faol va passiv lug‘atni boyitish hamda o‘quvchilar nutqida faollashtirish masalalariga e’tibor qaratadi [4].

G‘.G‘.Mo‘minovaning tadqiqotida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida lingvistik kompetentlikni shakllantirishda turli metodik yondashuvlarning o‘zaro uyg‘unligi asoslangan[5]. Bu yondashuv leksik birliklar ustida ishlashni ona tili darsining boshqa tarkibiy qismlaridan ajratib qo‘ymasdan, o‘quvchining umumiy nutqiy faoliyati bilan bog‘lash imkonini beradi. So‘nggi yillarda lug‘at boyligini rivojlantirishga qaratilgan metodik tavsiyalarda ham boshlang‘ich ta’limda so‘z ustida ishlashning turli usullaridan foydalanish masalasi yoritilmoqda. Xususan, lug‘at boyligini oshirish strategiyalarida o‘quvchining yangi so‘zlarni o‘zlashtirishi va ulardan foydalanishiga yo‘naltirilgan metodik vositalar taklif etilgan[6]. O‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishga qaratilgan metodik tavsiyalarda ham so‘zlarni amaliy faoliyat orqali o‘zlashtirishga e’tibor qaratiladi[7]. TRIZ texnologiyasi asosida leksik ko‘nikmalarni rivojlantirishga bag‘ishlangan tadqiqotlar esa muammoli va ijodiy topshiriqlarning imkoniyatlarini ko‘rsatadi[8]. Shuningdek, ona tili darsliklaridagi lug‘at birliklaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning leksik fikrlashini rivojlantirish masalasi ham tadqiqotchilar e’tiborida bo‘lmoqda[9].

METODOLOGIYA

Pedagogik kuzatish, ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish, modellashtirish hamda metodik topshiriqlarni loyihalashtirish usullaridan foydalanildi. Leksik kompetentlikni shakllantirish jarayonida kompetensiyaviy, kommunikativ, kontekstual va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlar asos qilib olindi. Bunda o‘quvchi tayyor ma’lumotni qabul qiluvchi emas, balki yangi so‘zning ma’nosini aniqlaydigan, uni boshqa leksik birliklar bilan qiyoslaydigan va turli nutqiy vaziyatlarda qo‘llaydigan faol subyekt sifatida

qaraladi.Tadqiqotning metodik yangiligi sifatida leksik birlik ustida ishlashning "anglash - farqlash - qo'llash - nutqda faollashtirish" ketma-ketligi taklif etildi. Ushbu model quyidagi mazmunga ega: Anglash → Farqlash → Qo'llash → Nutqda faollashtirish. Birinchi bosqichda o'quvchi yangi so'zning ma'nosini anglaydi. Ikkinchi bosqichda uni ma'nodosh, zid ma'noli, uyadosh yoki boshqa leksik birliklar bilan qiyoslaydi. Uchinchi bosqichda so'zni gap va matn tarkibida qo'llaydi. To'rtinchi bosqichda esa o'quvchi yangi leksik birlikdan mustaqil nutqiy faoliyatda foydalanadi. Mazkur model asosida so'z ustida ishlashni uch asosiy metodik bosqichda tashkil etish mumkin:

1-bosqich-semantik anglash. O'quvchi yangi so'zning ma'nosi bilan tanishadi. Bunda predmet yoki rasmni ko'rsatish, kontekst orqali ma'noni aniqlash, so'zni izohlash, sinonim yoki antonim yordamida tushuntirish, lug'atdan foydalanish kabi usullar qo'llanadi.

2-bosqich-mustahkamlash va differensiallashtirish. O'quvchi yangi so'zning boshqa leksik birliklar bilan ma'no munosabatini aniqlaydi. Sinonim, antonim, uyadosh, shakldosh yoki ko'p ma'noli so'zlar bilan bog'liq topshiriqlar shu bosqichda bajariladi.

3-bosqich - nutqiy faollashtirish. O'quvchi yangi so'zni mustaqil gap, dialog, kichik matn, hikoya yoki ijodiy topshiriqda qo'llaydi. Shu orqali yangi so'zning faol lug'at tarkibiga kirishiga sharoit yaratiladi.

NATIJALAR

Ilmiy-metodik manbalarni tahlil qilish va boshlang'ich sinf uchun metodik topshiriqlarni tizimlashtirish asosida leksik kompetentlikni shakllantirishning quyidagi metodik imkoniyatlari ajratildi.

1. Kontekst asosida so'z ma'nosini aniqlash

Yangi so'zning ma'nosini faqat tayyor izoh orqali tushuntirish o'rniga uni gap yoki matn tarkibida berish o'quvchining mustaqil fikrlashiga imkon yaratadi. Masalan: *"Bahorda tabiat uyg'onib, atrof yam-yashil tusga kirdi."*

O‘quvchiga “tus” so‘zining ma’nosini tayyor holda aytish o‘rniga uning gapdagi mazmunini aniqlash topshiriladi. Keyinchalik “tus”, “rang”, “ko‘rinish” so‘zlari o‘rtasidagi ma’no munosabati aniqlanadi.

2. Sinonim va antonimlar asosida leksik mashqlar

Sinonim va antonimlar ustida ishlash o‘quvchining lug‘at boyligini kengaytirish bilan birga, so‘zlar o‘rtasidagi ma’no munosabatlarini farqlash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Masalan: chiroyli - go‘zal - ko‘rkam katta - ulkan - bahaybat

baland - past mehribon - shafqatsiz

Bunday topshiriqlarni faqat “sinonimini top” yoki “antonimini ayt” shaklida tashkil etish bilan chegaralanmaslik kerak. Aniqlangan so‘zlarni gapda qo‘llash, ularning ma’no farqini tushuntirish va kichik matn tuzish bilan davom ettirish maqsadga muvofiq. Masalan: “Go‘zal” so‘zi ishtirokida gap tuzing. Shu gapda “go‘zal” o‘rniga “chiroyli” so‘zini qo‘llab ko‘ring. Mazmunda qanday o‘zgarish bo‘ldi? Bunday topshiriq o‘quvchini so‘zlarni mexanik almashtirishdan ko‘ra ularning ma’no va qo‘llanish xususiyatlarini anglashga yo‘naltiradi.

3. Lug‘at bilan ishlash

Lug‘at bilan ishlash o‘quvchining mustaqil o‘quv faoliyatini rivojlantirish bilan birga, yangi leksik birliklarni o‘zlashtirish imkoniyatini kengaytiradi. O‘quvchi notanish so‘zga duch kelganda uning ma’nosini mustaqil aniqlashga o‘rganishi muhim. Bunda quyidagi algoritmdan foydalanish mumkin:

notanish so‘zni aniqlash → lug‘atdan izlash → ma’nosini aniqlash → gapdagi vazifasini belgilash → mustaqil gap tuzish.

Masalan, o‘quvchi matnda uchragan “saxovat” so‘zining ma’nosini lug‘atdan topadi. Keyin uning izohini o‘z so‘zlari bilan tushuntiradi va “Saxovatli inson boshqalarga yordam beradi” kabi gap tuzadi. Bunday faoliyat lug‘at bilan ishlashni oddiy ma’lumot izlashdan nutqiy faoliyatga aylantiradi.

4. O‘yinli metodlardan foydalanish

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda leksik topshiriqlarni o‘yin shaklida tashkil etish ham samarali metodik imkoniyatlardan biridir. O‘yinli yondashuv o‘quvchining topshiriqqa qiziqishini oshirib, so‘zlardan faol foydalanishiga sharoit yaratadi.

Masalan:“So‘zni top” - o‘qituvchi so‘zning ma’nosini izohlaydi, o‘quvchilar tegishli so‘zni topadilar.

“Ortiqchasini top” - berilgan so‘zlar guruhidan ma’no jihatdan mos kelmaydigan birlik aniqlanadi.

“So‘z zanjiri” - berilgan so‘z asosida yangi so‘zlar hosil qilinadi.

“Bir so‘z - uch gap” - bitta so‘z uch xil mazmundagi gapda qo‘llanadi.

Ayniqsa, “Bir so‘z - uch gap” topshirig‘i so‘zning turli kontekstlarda qanday ma’no va vazifada qo‘llanishini anglashga yordam beradi.

5. Rasm va vizual vositalardan foydalanish

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun vizual materiallardan foydalanish yangi so‘zlarni o‘zlashtirishni yengillashtiruvchi metodik vositalardan biridir. Rasm asosida so‘z topish, rasmga mos so‘zlarni guruhlash, rasm asosida gap tuzish va kichik hikoya yaratish kabi topshiriqlar so‘zlarni faol nutqqa ko‘chirishga yordam beradi.Masalan, “Tabiat manzarasi” tasviri asosida o‘quvchilarga quyidagi so‘zlarni berish mumkin: yashil, musaffo, sokin, yam-yashil, shabada, gullamoq. O‘quvchi avval rasmga mos so‘zlarni tanlaydi, keyin ular yordamida gaplar tuzadi va yakunda kichik matn yaratadi. Shu tariqa bitta vizual topshiriq semantik, kontekstual va produktiv komponentlarning rivojlanishiga xizmat qiladi.

6. Nutqiy vaziyatga asoslangan topshiriqlar

Leksik kompetentlikning muhim jihatlaridan biri so‘zni muayyan nutqiy vaziyatga mos ravishda tanlay olishdir. Shu sababli o‘quvchilarga hayotiy vaziyatlarga yaqin kommunikativ topshiriqlar berish muhim. Masalan: *“Do‘stingizni tug‘ilgan kuni bilan tabriklang. Tabrik matnida mehr, quvonch, tilak kabi so‘zlardan foydalaning.”* J.Tuzikenovaning tadqiqotida ham leksik kompetensiyani shakllantirishda yangi so‘zlarni o‘zlashtirish va ularni nutqda faollashtirishga

alohida e'tibor qaratilgan [4]. Mazkur yondashuv nutqiy vaziyatga asoslangan topshiriqlarning metodik ahamiyatini belgilaydi. G'.G'.Mo'minovaning tadqiqotida esa lingvistik kompetentlikni shakllantirishda leksik, interaktiv, o'yinli va kontekstli yondashuvlarning uyg'unligi asoslangan[5]. Tahlil qilingan ilmiy-metodik qarashlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining leksik kompetentligini quyidagi tarkibiy jihatlar orqali tavsiflash mumkin:

№	Tarkibiy jihat	Mazmuni
1	**Semantik**	So'z ma'nosini anglash
2	**Differensial**	Ma'nodosh, qarama-qarshi va boshqa ma'no munosabatlarini farqlash
3	**Kontekstual**	So'z ma'nosini gap va matn asosida aniqlash
4	**Kommunikativ**	So'zni muayyan nutq vaziyatiga mos qo'llash
5	**Produktiv**	Yangi so'zlardan mustaqil gap va matn tuzishda foydalanish
6	**Refleksiv**	O'z nutqidagi leksik xatolarni anglash va tuzatish

Mazkur tarkibiy jihatlar bir-biri bilan uzviy bog'langan. Masalan, o'quvchi so'z ma'nosini anglamasdan uni kontekstga mos qo'llay olmaydi; so'zning ma'no munosabatlarini farqlamasdan esa undan mustaqil va aniq foydalanishi qiyinlashadi. Shu sababli leksik kompetentlikni shakllantirishda alohida ko'nikmalarni emas, balki ularning o'zaro bog'langan tizimini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

MUHOKAMA

O'rganilgan ilmiy-metodik qarashlar va taklif etilgan topshiriqlar tizimi leksik kompetentlikning ko'p komponentli xususiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Leksik kompetentlikni faqat lug'at boyligining miqdori bilan o'lchash o'quvchining real nutqiy imkoniyatlarini to'liq aks ettirmaydi. Chunki o'quvchi ko'plab so'zlarni bilishi mumkin, biroq ularni kontekstga mos tanlamasligi yoki nutqiy vaziyatda to'g'ri qo'llay olmasligi mumkin. Shu jihatdan J.Tuzikenovaning yangi so'zlarni

o‘zlashtirish va ularni nutqda faollashtirishga qaratilgan metodik qarashlari mazkur tadqiqotdagi “anglash - farqlash - qo‘llash - nutqda faollashtirish” ketma-ketligi bilan mazmunan uyg‘unlashadi[4]. G‘.G‘.Mo‘minovaning interaktiv, o‘yinli va kontekstli yondashuvlarni uyg‘unlashtirishga doir qarashlari esa leksik topshiriqlarni turli metodlar asosida tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi [5]. Demak, leksik kompetentlikni rivojlantirishda bitta metodga tayanishdan ko‘ra, o‘quvchining ma’noni anglash, qiyoslash, mustaqil fikrlash va nutqiy faoliyatini birlashtiruvchi topshiriqlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq. Taklif etilgan metodik modelning amaliy ahamiyati shundaki, u o‘qituvchiga yangi so‘z ustida ishlash jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish imkonini beradi. Bunda birinchi navbatda so‘zning ma’nosi anglatiladi, keyin uning boshqa so‘zlar bilan munosabati aniqlanadi, undan keyin so‘z gap va matnda qo‘llanadi hamda yakunda mustaqil nutqiy vaziyatga olib chiqiladi.

XULOSA

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida leksik kompetentlikni shakllantirish ularning lug‘at boyligini kengaytirish bilangina cheklanmay, so‘z ma’nosini anglash, leksik birliklarni farqlash, so‘zni kontekstga mos tanlash va undan og‘zaki hamda yozma nutqda faol foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili asosida leksik kompetentlikni shakllantirishning kontekstual, kommunikativ, interfaol, o‘yinli, vizual va lug‘at bilan ishlashga asoslangan metodik imkoniyatlari tizimlashtirildi. Tadqiqot doirasida taklif etilgan “anglash - farqlash - qo‘llash - nutqda faollashtirish” modeli leksik birlik ustida ishlashning izchil metodik ketma-ketligini ifodalaydi. Mazkur modelda yangi so‘zning ma’nosini anglash, uni boshqa birliklardan farqlash, gap va matn tarkibida qo‘llash hamda mustaqil nutqiy faoliyatga olib kirish o‘zaro bog‘langan holda tashkil etiladi. Ayniqsa, diagnostik va metodik topshiriqlarda o‘quvchining faqat so‘z ma’nosini bilishi emas, balki uni kontekstda to‘g‘ri qo‘llashi, boshqa so‘zlardan farqlashi va mustaqil nutqiy faoliyatda ishlata olishi ham hisobga olinishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mahmudov N. *Til va tilning taraqqiyoti masalalari.* - Toshkent: Fan, 1995.
2. Jamolxonov H. *Hozirgi o'zbek adabiy tili.* - Toshkent: Talqin, 2005.
3. Rahmatullayev Sh. *O'zbek tilining izohli lug'ati.* - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020.
4. Tuzikenova J.A. *Ona tili va o'qish darslarida o'quvchilarning leksik kompetensiyasini shakllantirish metodikasi.* Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. - Nukus, 2024.
5. Mo'minova G'.G'. *Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarda lingvistik kompetentlikni shakllantirish texnologiyasi.* Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. - Namangan, 2020.
6. Abdupattayev A., Abdug'aniyeva N.A., Boxodirova D.S. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish strategiyalari // *Ta'lim va taraqqiyot.* - 2026. - №2.
7. Tolipova Z. O'quvchilarning lug'at boyligini oshirish uchun metodik tavsiyalar // *Yosh olimlar.* - 2025. - №18. - B. 126-129.
8. Zokirova S., Fayzullayeva N. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida leksik komponentlikni TRIZ texnologiyasi yordamida rivojlantirish // *Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali.* - 2025.
9. Ergasheva M. Ona tili darsliklaridagi lug'at so'zlardan foydalanish: maktab o'quvchilarida leksik fikrlashni rivojlantirish vositasi sifatida // *Yosh olimlar.* - 2025. - №24. - B. 20-23.